



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



YANGI O'ZBEKISTON VA YAPONIYA TAJRIBASI: SAIBAN-IN MODELI MILLIY SUD TIZIMIDA

Keldibekova Dinara Rustamovna

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
"Xalqaro huquq" fakulteti, 2-bosqich talabasi
e-pochta: keldibekovadinara316@gmail.com
tel: +998(94) 867 15 11*

Ilmiy rahbar: Soliyev Dilshod Baxtiyor o'g'li

*JIDU Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari kafedrasi katta o'qituvchisi
email: dsoliyev9610@gmail.com*

Anotatsiya: Ushbu maqolada Yaponiya jinoyat-protsessual qonunchiligidagi o'ziga xos institut – "Saiban-in" tizimining huquqiy asoslari, ishlash mexanizmi va uning O'zbekiston sud-huquq tizimini isloh qilishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif 2009-yildan buyon Yaponiyada tatbiq etilayotgan, oddiy fuqarolarni tasodifiy tanlash orqali og'ir jinoyat ishlarini ko'rishga jalb etuvchi ushbu modelning ijobiy natijalarini tadqiq etgan. Maqolada sud hay'atini shakllantirish tartibi, fuqarolar uchun qo'yilgan yosh va ijtimoiy cheklovlar hamda professional sudyalalar bilan hamkorlikda qaror qabul qilish iyerarxiyasi yoritilgan. Yakunda "Saiban-in" tizimini milliy qonunchilikka moslashtirish va ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan jinoyat ishlarida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Saiban-in, sud maslahatchilari, jinoyat-protsessual qonunchiligi, Yaponiya tajribasi, professional sudya, odil sudlov, jamoat nazorati, og'ir jinoyatlar.

Kirish.

Men ushbu maqolam orqali Yaponiya qonunchligida mavjud bo'lgan jinoyat protsessual tizimining bir bo'limini O'zbekiston qonunchligiga kiritishni taklif qilmoqchiman. Bu Yaponiya tizimi Saiban-in deb nomlandi va uning ma'nosi sud maslahatchilari tizimi bo'lib, bu oddiy fuqarolarning jiddiy jinoiy ishlar bo'yicha sud qarorlarini qabul qilishda ishtirok etishidir. Bu tizim Yaponiyaning Jinoyat protsessual qonunchiligiga 2009 yilda kiritilgan bo'lib, bu to'g'risida "Sud maslahatchilari ishtirokidagi jinoiy sudlar to'g'risida"gi Qonunda keltirib o'tilgan. Bu tizimni tushunish uchun uning qanday ishlashi va nima uchun aynan fuqarolar tanlab olinishiga e'tibor berish kerak.

Asosiy qism.

Birinchi bo'lib, bu Yaponiyaning tizimi qanday ishlaydi shuni bilib oladigan bo'lsak, 20 yoshga to'lgan, saylash huquqiga ega bo'lgan tasodifiy fuqarolar kompyuter orqali tanlab olinadi. Faqatgina ba'zi cheklovlar bo'lib, bular tanlash jarayonida ayrim toi fadagi shaxslar qatnasha olmaydi ya'ni saiban-in sifatida xizmat qilishdan ozod qilinishi mumkin bo'lgan shaxslar bular 70 yosh yoki undan kattalar, og'ir kasalligi yoki jarohati bo'lganlar, oila



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



a'zolariga g'amxorlik qilishi kerak bo'lganlar, saiban-in vazifasini bajarishi sababli jiddiy moliyaviy qiyinchilikka duch keladiganlar va muhim ijtimoiy majburiyatlari bor odamlar misol uchun oila a'zolarining dafn marosimida qatnashish kerak bo'lsa saiban-in xizmatidan ozod qilinishi mumkin. Va shuningdek, saiban-in sifatida xizmat qilishdan chetlashtirilgan shaxslar ham bo'lib, bular ko'rib chiqilayotgan jinoiy ish bilan aloqadorligi mavjud bo'lgan shaxslar va ish bo'yicha adolatsiz qaror chiqarishi mumkin bo'lgan shaxslar kiradi. Bu jarayonda sud ha'yati qanday shaklda bo'ladi. Odatda 3 nafar professional sudya va 6 nafar oddiy fuqaro birgalikda o'tiradi. Ular ayblanuvchi aybdormi yoki yo'qligini hal qilishadi va agar aybdor bo'lsa, qancha jazo masalan necha yil qamoq yoki o'lim jazosi berishni sudyalar bilan teng bahslashib hal qilishadi. Qaror qabul qilish jarayonida esa, qaror ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, lekin bir sharti bor bu ham bo'lsa ko'pchilikning ichida kamida bitta professional sudyaning ovozi bo'lishi kerak bo'ladi. Bu tizim haqida yana bir muhim narsa bu faqatgina og'ir jinoyatlargagina tatbiq etiladi, ya'ni qotillik, tan jarohati yetkazilgan bosqinchilik, o'tqo'yish va shunga o'xshash ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan jinoyat uchungina saiban-in tizimi joriy etiladi.

Bu tushunchalarni esa quyidagi Yaponiyaning rasmiy manbasi orqali ko'rishimiz mumkin.

Establishment of a Popular Base (Participation of the General Public in the Justice)

Introduction of the Saiban-in System

A new system will be introduced in criminal trials, enabling the general public to participate in the procedures of serious cases as *saiban-in* (lay judges). The *saiban-in* system is scheduled to be implemented by 2009.

Q Why will the *saiban-in* system be introduced?

A Introduction of the system will make it possible to reflect social norms more directly in trial decisions by having members of the general public, who do not have special knowledge of the law, participate in criminal trials. This is expected to deepen people's understanding of and support for the justice system. At the same time, participation by the general public will facilitate faster trials and make the court proceedings and rulings more easily understandable.

Q What cases are covered by the *saiban-in* system?

A Serious cases that are of particularly high interest to the public such as murder cases.

Q How are *saiban-in* selected?

A In order to select *saiban-in* fairly from a broad spectrum of the general public, *saiban-in* candidates will be selected by lot once a year from among people aged 20 or above. The candidates will receive notification. *Saiban-in* for individual cases will be selected from among the candidates by the court in accordance with selection procedures.

Q Can people be excused from serving as *saiban-in*?

A A *saiban-in* candidate who receives a summons from the court must appear at the court. However, people who have due reason are excused from serving as *saiban-in*.

Q Can people take time off from work in order to serve as *saiban-in*?

A Yes, it is permitted by law to take necessary time off from work to serve as *saiban-in*.

Flow of a Trial under the Saiban-in System

Investigation

Prosecution

Trial preparation
(The lawyer and court examine the evidence.)

Selection of saiban-in
(Six saiban-in and three judges sit alongside and hear witness in and one judge is away court.)

Court proceedings (trial)
(The panel hears from witnesses and examines the evidence.)

Judgment

Participation of saiban-in

People who can be excused from serving as saiban-in (examples):

- Those who are 70 years old or above
- Those with a serious illness or injury
- Those who need to raise or take care of family members
- Those who will suffer serious financial difficulties in the course of their employment if they serve as saiban-in
- Those who have important social engagements, such as attending a funeral for a parent

People who are disqualified from serving as saiban-in (examples):

- Those who are connected to the case
- Those who are likely to make unfair decisions

The panel decides whether the defendant is guilty or not guilty as well as how many or light the sentence should be.

The duty of the saiban-in is very important in supporting the justice system of Japan and creating a better society.

For details, please visit the following websites.
 Ministry of Justice: <http://www.moj.go.jp/SAIBAN/index.html>
 Court: <http://www.courts.go.jp/>

Promotion and Development of Law-Related Education

In order to give the general public, who are not legal professionals, the opportunity to understand the laws, the justice system and the values behind them and to acquire a legal frame of mind, study groups and conferences have been established. Work is also being done toward developing teaching materials for use by lower secondary school students.

Saiban-in tizimi ya'ni fuqarolarning sudda hukm chiqarish jarayonida qatnashish Yaponiyada qanday o'zgarishlar olib keldi.

2009-yilda Yaponiyada joriy qilingan Saiban-in tizimi jinoyat odil sudlov tizimiga katta o'zgarishlar olib keldi. Bu tizim bilan birga so'roqlarni videoga olish kabi islohotlar ham amalga oshirildi. Oldin sudlarda asosan yozma hujjatlar o'qilar, suddagi og'zaki nutq unchalik muhim emas edi. Yangi bu tizim esa prokuror va advokatlardan ishni oddiy fuqarolar



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ham tushunadigan qilib tushuntirishni talab qildi. Natijada esa advokatlarning suddagi nut mahorati oshdi, guvohlarni tinglash muhimlashdi, jinoyat himoyasi sohasi yanada professional bo'ldi. Bu tizim joriy qilingandan keyin Yaponiya Advokatlar Federatsiyasi tomonidan Yaponiya advokatlari uchun maxsus trening va seminarlar tashkil qilina boshladi. Saiban-in tizimidan oldin sudyalalar ayrim dalillarni keng vakolat bilan qabul qilardi. Yangi tizimidan keyin esa sudlar oddiy fuqarolar noto'g'ri yoki hissiyotga ta'sir qiluvchi dalillarga aldanib qolmasligi uchun dalillarni ehtiyotkorlik bilan tekshira boshladi. Masalan, bir ishda prokuror o'ldirilgan bolaning rasmlarini sudga ko'rsatmoqchi bo'lgan. Sud esa bu rasmlar faqat sudyaning hissiyotiga ta'sir qiladi deb hisoblab, ularni dalil sifatida qabul qilmagan. 2012-yilda Yaponiya Oliy sudi ham muhim qaror chiqardi. Sud avvalgi jinoyatlar haqidagi ma'lumotlarni har doim ham dalil sifatida ishlatib bo'lmasligini aytdi. Ya'ni odam ilgari jinoyat qilgan bo'lsa ham, bu uning yangi ishda albatta aybdor ekanini anglatmaydi. Bu o'zgarishlar esa sudlarda adolatli dalil baholash tizimini kuchaytirdi. Ushbu Saiban-in tizimi Jinoyat protsessual huquqiga kirib kelganidan keyin garov va hibsga olish tizimida ham o'zgarishlar yuzaga keldi. Saiban-in tizimidan keyin sudlar hibsga olish talablarini ko'proq rad eta boshladi, advokatlar tergov boshidan ishga faol qatnashadigan bo'ldi, garov asosida ozod qilish soni oshdi. Masalan, 2006-yilda ya'ni bu tizim o'rnatilmasdan oldin garovga chiqarish darajasi taxminan 14% bo'lgan bo'lsa, 2016-yilda 30% ga yaqinlashdi. Lekin muammolar ham saqlanib qolgan. Agar ayblanuvchi aybini inkor qilsa va o'zini aybsiz desa, unga garov berilishi juda qiyin bo'ladi. Shu sababli ham Yaponiya tizimi ba'zan "Hostage Justice" ya'ni garovdagi adliya tizimi deb tanqid qilinadi. Chunki ayrim odamlar uzoq qamoqda qolmaslik uchun aybni tan olishga majbur bo'lishi mumkin. Ushbu tizim joriy qilinganidan keyin Yaponiyada jabrlanuvchilarning suddagi ishtiroki ham nisbatan oshdi. Jabrlanuvchilar guvohlarga savol berishi, ayblanuvchiga savol berishi, jazo haqida o'z fikrini bildirishi mumkin. Bu tizim jabrlanuvchilarning huquqlarini kuchaytirdi. Lekin ba'zan ularning hissiy chiqishlari sud qaroriga ta'sir qilishi mumkinligi sababli tanqid qilingan. Shuningdek, guvoh va jabrlanuvchilarni himoya qilish uchun ayblanuvchi bilan orasiga ekran qo'yish, boshqa xonadan video orqali ko'rsatma berish kabi usullar ham qo'llanildi. Bu usullar jabrlanuvchini ruhiy himoya qiladi, lekin ayrim hollarda ayblanuvchining yuzma-yuz savol berish huquqiga ta'sir qiladi. Umumiy holatda, Saiban-in tizimi Yaponiya jinoyat odil sudlov tizimiga katta o'zgarishlar olib keldi. Tizim sudlarni yanada ochiq va faol qildi, advokatlarning malakasini oshirdi, dalillarni baholashni kuchaytirdi va eng muhimi oddiy fuqarolarni sud jarayoniga jalb qildi.

Yaponiyada saiban-in tizimining joriy qilingandan buyon 15 yillik jinoyat protsessual holati statistikalarda.

Yaponiya Oliy sudining xabar berishicha, saiban-in tizimi joriy qilinganidan buyon 15 yil davomida 120,000 dan ortiq fuqarolar sud hukmlarini chiqarishda ishtirok etishdi. Saiban-in xizmati uchun tanlanishi mumkin bo'lgan, ammo xizmat qilishni rad etgan fuqarolar foizi 2009-yildagi 53,1% dan oshgan. 2010-yilda biroz pasayib 53,0% bo'lganidan so'ng, bir necha




TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



yil davomida muntazam ravishda ko'tarilib brogan. So'nggi yillarda esa bu ko'rsatkich yuqori darajada saqlanib, taxminan 65%-69% atrofida bo'lmoqda.

Number of Lay Judges/Alternates and Percentage Who Refuse to Serve



Created by Nippon.com based on data from the Supreme Court of Japan.

nippon.com

Oddiy fuqarolar ishtirokidagi sud jarayonlari qotillik, bosqinchilik va o't qo'yish kabi og'ir jinoyatlar uchun o'tkaziladi. Shu sababli jazolar ham og'irroq ham og'irroq bo'ladi. Oddiy fuqarolari ishtirokida sud qilingan 16 387 nafar ayblanuvchidan 46 nafari o'lim jazosiga, 302 nafari esa umrbod qamoq jazosiga hukm qilingan. 1%dan ham kam, ya'ni 157 kishi aybsiz deb topilgan.

Main Crimes and Number of Defendants



Created by Nippon.com based on data from the Supreme Court of Japan.

nippon.com



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Verdicts Reached in Lay Judge Trials



Created by *Nippon.com* based on data from the Supreme Court of Japan.

nippon.com

Xulosa.

Ushbu tizimni O'zbekiston qonunchiligida joriy qilganimizda Jinoyat protsessual qonunchiligida qanday o'zgarishlar yuz bergan bo'lardi?

Bizning davlatimiz bilan solishtirganda bir o'xshashlik bor bo'lib, bu O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual kodeksining 13-moddasida ishlarni hay'atda ko'rish tartibi belgilangan, lekin bizda Yaponiya kabi oddiy fuqarolarni tasodifiy tanlab, og'ir jinoyatlarga hukm chiqartirish tizimi mavjud emas. Bizdagi xalq maslahatchilari tizimi esa Yaponiyaning ushbu zamonaviy tizimidan tubdan farq qiladi.

Nima uchun O'zbekistonda ham fuqarolarni tanlab olish foydali bo'lar edi?

Birinchi bo'lib, bu sud tizimiga ishonchni oshiradi. Chunki professional sudyalarning yillar davomida faqat qonun matnlari bilan ishlab, hayotiy voqelikdan biroz uzoqlashib qolishlari mumkin. Oddiy fuqarolarning ishtiroki sud jarayonini shaffoflashtiradi va xalqning sudga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Sudyalarning ko'pincha quruq qonuniy nuqtayi nazardan yondashadi. Fuqarolar esa o'zlarining hayotiy tajribalari, jamiyatdagi axloqiy qarashlari va sog'lom mantiqlarini olib kirishadi. Bu jazo tayinlashda adolatliroq insoniylik nuqtayi nazaridan qaror chiqishiga yordam beradi. Shuningdek, bu tizim O'zbekiston sud tizimida sud tilini soddalashtirishga yordam beradi. Professional yuristlar juda murakkab terminlarda gaplashishadi. Saiban-in tizimida prokurorlar va advokatlar o'z dalillarni oddiy odam tushunadigan tilda tushuntirishga majbur. Bu esa sud jarayonini hamma uchun tushunarli qiladi. Yana bir ijobiy tomoni bu tizimni joriy qilishimizning bu fuqarolik mas'uliyatini oshiradi. Bu tizim odamlarni davlat boshqaruvi va huquqiy jarayonlarda ishtirok etishga o'rgatadi. Fuqaro sud zalida o'tirib, inson taqdirini hal qilar ekan, qonun ustuvorligini chuqurroq his qiladi. Professional sudyalarning o'zi qaror chiqarsa, bu "yuqoridan pastga" qarab berilgan buyruqdek ko'rinishi mumkin. Olti nafar fuqaroning ishtiroki esa qarorning jamiyat tomonidan qabul qilinganligini anglatadi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Agar O'zbekistonda ham shunday tizim kengroq joriy etilsa masalan, korrupsiya yoki o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha, bu sudlarning mustaqqiligini ta'minlashga va prokuratura hamda sudning o'zaro kelishib olishi ehtimolini kamaytirishga xizmat qilgan bo'lar edi. Chunki tasodifiy tanlangan 6 nafar fuqaro bilan kelishib olish ancha qiyin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz/mact/-111460> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi.
2. https://www.moj.go.jp/ENGLISH/issues/justice_system_reform-6.pdf Introduction to Saiban-in system.
3. <https://www.nippon.com/en/japan-data/h01999/> Yaponiya Milliy Statistika qo'mitasi.
4. https://www.moj.go.jp/EN/keiji1/saibanin_seido_index.html Saiban-in system to'g'risida Yapon olimlarining fikri.

